



## USUL AL-FIQH ILMINING AHAMIYATI

Navro'zbek Abdubannoyev

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti

Aqid va fiqhiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.

email.: abdujalilabdurahmon26@gmail.com

Tel.:998974162622

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16026037>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 11-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 17-Iyul 2025 yil

### KEY WORDS

*Usul al-fiqh, mujtahid ulamolar, shar'iy dalillar, Hanafiy mazhabi, ijthod va qiyos, Qur'on va Sunnatga asoslangan huquq*

### ABSTRACT

*Mazkur maqola islom huquqshunosligi tizimidagi eng muhim fanlardan biri — usul al-fiqh ilmining nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini keng qamrovda tahlil qiladi. Usul al-fiqh — bu shar'iy dalillar (Qur'on, Sunnat, Ijmo, Qiyos) asosida amaliy hukmlar chiqarish qoidalarini o'rganadigan ilmiy yo'nalish bo'lib, u asosan mujtahid darajasiga yetgan olimlar tomonidan tatbiq etiladi.*

*Maqolada bu fanning payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning davridan boshlab, sahobalar, tobeinlar va salaf ulamolari davrida qanday shakllanib borganligi tarixiy va daliliy misollar asosida bayon etiladi. Xususan, Rasululloh (s.a.v)ning vahiy bo'lmagan masalalarda ijthod qilganlari, sahobalarning ijthodiy qarorlarini payg'ambar tomonidan ma'qullangani haqida Qur'on oyatlari va hadislar orqali dalillar keltiriladi.*

*Shuningdek, maqolada Hanafiy mazhabiga oid usuliy adabiyotlar — Abu Bakr ar-Roziy, Dabusiy, Pazdaviy, Nasafiy, Samarqandiy, Xorazmiy kabi allomalar tomonidan yozilgan asarlar tahlil qilinadi. Bu asarlarda shar'iy dalillarni ta'riflash, ularning turlari va ulardan hukm istinbot qilish uslublari misollar bilan yoritiladi. Qur'on oyatlarining umumiy va xos ma'nolari, nasx, istinbot, dalolat turlari kabi usuliy masalalar fanning asosiy mavzularidan biri sifatida ko'rib chiqiladi.*

Shar'iy ilmlardan xabardor bo'lgan kishilar uchun "Usul al-fiqh" ilmi begona emas. Mazkur fan boshqa fanlarga nisbatan birmuncha qiyinligi bilan ajralib turadi. Zero, u mujtahid ulamolarga xos bo'lgan dalil, hukm va ular o'rtasidagi aloqaga doir qoidalarni o'rganishni nazarda tutadi. Bu ilm haqida Shosh ulamolaridan biri Nizomiddin Shoshiyning "Usul al-

shoshiy” asari muqaddimasida quyidagi ta’rif keltirilgan:

“U – Shar’iy dalillardan amaliy hukmlarni chiqarib olish qoidalari o’rganiladigan ilm”.<sup>1</sup>

Ta’rifdan ko’rinib turibdiki, usul al-fiqh ilmi islom dinida muqaddas manba hisoblangan Qur’oni karim va sunnatdan, shuningdek, “Ijmo” va “Qiyos” kabi asl dalillardan far’iy hukmlarni chiqarib olish qoidalari o’rganiladigan ilm hisoblanadi.

Yuqorida bu ilm aslida mujtahid ulamolarga tegishli ekani aytib o’tildi. Shu o’rinda Muhammad (s.a.v) ham mujtahidlarning avvalgilaridan ekanini ham aytib o’tish kerak. Ulamolar Rasululloh (s.a.v) Robbilaridan vahiy kelamagan o’rinlarni ijthodga izn deb bilganlari va qiyos bilan ijthod qilganlarini aytib o’tganlar<sup>2</sup>. Bunga misol sifatida Nabiy (a.s) ba’zi kishilarga “Tabuk” g’azotiga bormaslikka izn berganlari, so’ngra Alloh taolo tomonidan u zotga tanbeh berilgani aytiladi:

عَفَا اللَّهُ عَنْكَ لِمَ أَذْنَبْتَ لَهُمْ حَتَّى يَتَبَيَّنَ لَكَ الَّذِينَ صَدَقُوا وَتَعْلَمَ الْكَاذِبِينَ<sup>3</sup>

Alloh sizni afv etdi. (Lekin) Sizga rostgo’ylarni aniqlab, yolg’onchilarni bilmaguningizgacha, nega ularga (jangdan qolish uchun) ruxsat berdingiz?<sup>4</sup>

Bundan tashqari Rasululloh (s.a.v)ning ijthodlariga husumatchilar o’rtasida hukm qilganlari ham misol bo’ladi. Ummu Salama (r.a)dan rivoyat qilinadi: “Ansorlardan ikki kishi Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga o’rtalaridagi meros masalasida (hukm so’rab) keldi. Shunda u zot: “Men ham basharman, sizlar mening oldimga husumatlashib keldingiz. Menga u haqida vahiy kelmagan masalada o’zimning rayim bilan hukm qilaman. Kimning foydasiga birodarining haqqini (nohaq) hukm qilsam, uni olmasin. Chunki unga do’zaxdan bir parchani bo’lib bergan bo’laman, qiyomat kuni uni bo’yniga (ko’tarib) olib keladi”, - dedilar”.<sup>5</sup>

Demak, Rasululloh (s.a.v) vahiy kelmagan masalalarda o’zlarining fikrlari bilan ijthod qilgan ekanlar. Yana u zot sahobalarning ijthodlarini maqullaganlari ham bir qancha asarlarda rivoyat qilingan. Bu holat hadis ilmida “taqdir” deyiladi va sunnatdan hisoblanadi. Sahobalar ichida Umar, Ali, Abdulloh ibn Mas’ud, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka’b, Muoz ibn Jabal, Abu Muso al-Ash’ariy (r.a) kabi ko’plab sahobalar fiqh va ijthod bilan mashhur bo’lganlar.

Mujtahid ulamolar davrida bu ilm keng tarqaldi. Kitob va sunnatni musulmonlar hayotiga tatbiq qilishda bu ilm beqiyos o’rinni egalladi. Keyinchalik kitoblar yozilish davrida Hanafiy mazhabida usul al-fiqh ilmiga doir mashhur kitoblar bitildi. Jumladan, Abu al-Hasan Karxiy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Zayd Dabusiyy, Faxr al-islom Pazdaviy, Abu Bakr Saraxsiy, Abdulaziz Qozi Nasafiy, Alouddin Samarqandiy, Abu al-Muayyad Xorazmiy, Abu al-Barakot Hofizuddin Nasafiy, Qozi Bayzoviy, Ubaydulloh ibn Mas’ud al-Mahbubiy kabi va boshqa olimlar tarafidan katta hajmda ilmiy asarlar yozildi. Bu ilmiy risolalarda Qur’on, hadis, ijmo va qiyos kabi asl dalillar, ularning ta’rifi, qismlari va ulardan amaliy hukmlarni istinbot qilishdagi hanafiy mazhabining qoidalari misollar bilan keng yoritilgan. Masalan: Abu al-Barakot

<sup>1</sup> Nizomiddin Shoshiy. Usul ash-Shoshiy. – Karachi : Al-Bushro, 2021. – B. 6.

<sup>2</sup> Saloh Muhammad Abulhajj. Tahzib misar al-vusul ila ilm al-usul al-fiqh al-hanafiyya. – Ummon: Dor al-Foruq, 2020. – B. 22.

<sup>3</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 200.

<sup>4</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 194.

<sup>5</sup> Saloh Muhammad Abulhajj. Tahzib misar al-vusul ila ilm al-usul al-fiqh al-hanafiyya. – Ummon: Dor al-Foruq, 2020. – B. 23.

Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiyning “Usul al-fiqh” ilmiga bag’ishlangan “رسالة المنار” asarida Alloh taoloning kitobi Qur’oni karimga shunday ta’rif berilgan:

أما الكتاب فالقرآن المنزل على الرسول عليه السلام المكتوب في المصاحف المنقول عنه عليه السلام نقلا متواترا بلا شبهة<sup>6</sup>

Ya’ni: Kitob – Rasululloh alayhis salomga nozil qilingan, mus’haflarga bitilgan, u zot alayhissalomdan shubhasiz mutavotir<sup>7</sup> holda naql qilingan Qur’ondir. Ba’zilar yuqoridagi ta’rifga “tilovati ibodat hisoblanadi” jumlasini ham kiritganlar.

Usul al-fiqh ilmiga doir barcha kitoblarda, avvalo, Qur’oni karim bahsi keltiriladi. Zero, Qur’oni karim islom dini, undagi barcha e’tiqodiy va amaliy hukmlarning birlamchi asosi va insoniyat uchun buyuk ne’mat hisoblanadi. Bu haqida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (rohimahulloh) “Qur’on ilmlari” kitobida shunday deydi:

“Alloh taoloning insonga bergan ne’matlaridan biri uni yaratib o’z holiga qo’yib qo’ymaganidir. Balki yaratish bilan birga uni ikki dunyoda saodatmand qilishni ham O’z zimmasiga oldi. Chunki aqli qanchalik o’tkir bo’lsa ham, ilmi qanchalik rivojlansa ham, inson doimiy ravishda rabboniy hidoyatga muhtoj bo’lib turadi. Shuning uchun Alloh taolo rahmat va lutfu karam ko’rsatib insonlarga bashorat va ogohlantirish beruvchi payg’ambarlarni yuborib turishni iroda qilgan. Odamlar yolg’onchiga chiqarishlari ehtimoli kattaligidan Alloh taolo O’z rasullarini mo’jizalar bilan qo’llab turishni iroda qilgan. Qur’oni karim Muhammad (s.a.v)ning bosh mo’jizalari bo’lgan.”<sup>8</sup>

Demak, Qur’oni karim insonning ikki dunyosi uchun saodat manbayi bo’lgan ne’mat hamda Payg’ambar uchun, u zot alayhissalomning risolatini tasdiqlovchi ulkan mo’jiza ekan. Shu o’rinda: “Qur’oni karim barcha shar’iy ilmlarning asosi hisoblansa, unda hamma narsa bayon etilgan bo’lsa, unda boshqa ilmlarga nima hojat bor”, - degan savol tug’ilishi mumkin.

Alloh taolo Nahl surasining 89-oyatida bunday marhamat qiladi:

وَنَزَّلْنَا عَلَيْكَ الْكِتَابَ تِبْيَانًا لِّكُلِّ شَيْءٍ وَهُدًى وَرَحْمَةً وَبُشْرَىٰ لِلْمُسْلِمِينَ

“Sizga hamma narsani bayon qilib beruvchi, hidoyat, rahmat, va musulmonlar uchun bashorat bo’lgan Kitob (Qur’on)ni nozil qildik”<sup>9</sup>

Bu oyati karimani o’qish bilan inson zehninga: “ha, demak Qur’onda barcha narsa bayon etilgan ekan, islom diniga amal qilshda boshqa narsaga na hojat”, - degan hayol kelishi mumkin. Lekin bunday hayolga borgan kishi oyatdagi “barcha narsa” dan murod nimaligi, nimalar Qur’onning bayoni bo’lishi mumkinligidan g’aflatda qoladi. Abu al-Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy yuqoridagi oyati karimani o’zining “Tafsir an-Nasafiy” nomi bilan mashhur bo’lgan “مدارك التنزيل وحقائق التأويل” asarida quyidagicha tafsir qiladi:

﴿وَنَزَّلْنَا عَلَيْكَ الْكِتَابَ تِبْيَانًا﴾ بليغاً ﴿لِكُلِّ شَيْءٍ﴾ من أمور الدين . أما في الأحكام المنصوصة فظاهر ، وكذا فيما ثبت بالسنة أو بالإجماع ، أو بقول الصحابة أو بالقياس ؛ لأن مرجع الكل إلى الكتاب ، حيث أمرنا فيه باتباع رسوله وطاعته بقوله : ﴿وَأَطِيعُوا اللَّهَ وَأَطِيعُوا الرَّسُولَ﴾ [التغابن : ١٢] وحثنا على الإجماع فيه بقوله : ﴿وَيَتَّبِعْ غَيْرَ سَبِيلِ الْمُؤْمِنِينَ﴾ [النساء ١١٥] وقد رضي رسول الله لأئمة أتباع أصحابه بقوله: أصحابي كالنجوم بأيهم اقتديتم اهتديتم. وقد اجتهدوا ، وقاسوا ووطؤوا طرق الاجتهاد

<sup>6</sup> Ahmad ibn Abu Said. Nur al-anvor sharh risola al-manor.– Karachi:al-Bushro, 2021. – B. 26.

<sup>7</sup> Mutavotir – yolg’onga kelishib olishlari odatda muhol (imkonsiz) deb hisoblanadigan ko’p adaddagi kishilar rivoyat qilgan xabar. Qarang: Mahmud Tahhon. Taysir mustalah al-hadis. – Ar-Riyod, Maktaba al-Maorif, 2010. – B. 23.

<sup>8</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’on ilmlari. – Toshkent: Hilol nashr, 2019. – B. 184.

<sup>9</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 277.

والقياس ، مع أنه أمرنا به بقوله : ﴿فَاعْتَبِرُوا يَا أُولِيَ الْأَبْصَارِ﴾ [الحشر : ٢] فكانت السنة ، والإجماع ، وقول الصحابي ، والقياس مستندة إلى تبيان الكتاب ، فتبين أنه كان تبيانا لكل شيء<sup>10</sup>

“Oyati karimadagi **“لِكُلِّ شَيْءٍ”** – **“hamma narsa”** dan murod – dinga ta’alluqli ishalardir. (Dinga ta’alluqli ishlardan) Qur’onda kelgan hukmlar (Qur’oni karim ularni bayon qilib beruvchi ekani) ochiq oydin tushunarli. Shuningdek, Sunnat, Ijmo, sahobaning so’zi yoki Qiyos bilan sobit bo’lgan hukmlarni ham Qur’oni karim bayon qilgan hisoblanadi. Chunki bularni barchasining marje’si Qur’oni karimdir. Zotan Alloh taolo O’zining kitobida bizlarni Payg’ambarga ergashish va itoat etishga <sup>11</sup>﴿ وَأَطِيعُوا اللَّهَ وَأَطِيعُوا الرَّسُولَ ﴾ oyati bilan buyuradi. Yana unda bizlarni ijmoğa <sup>12</sup>﴿ وَيَتَّبِعْ غَيْرَ سَبِيلِ الْمُؤْمِنِينَ ﴾ oyati bilan targ’ib qiladi. Rasululloh (s.a.v): “Sahobalarim yulduzlarga o’xshaydi, ulardan qay biriga ergashsangiz hidoyat topasiz”, - degan so’zlari bilan ummatlarining o’z sahoblariga ergashishlariga rozi bo’lganlar. Sahobalar esa ijthod qildilar, qiyos qildilar, ijthod va qiyosning yo’llarida yurdilar. Shu bila birga biz Alloh taoloning: **“Ibrat oling, ey aql egalari”**, oyati bilan qiyosga buyurilganmiz. Demak, sunnat, ijmo, sahobiyning so’zi va qiyos Qur’oni karimning bayoniga suyanadi, natijada u barcha narsaning bayoni ekani ravshan bo’ladi”.

Imom Nasafiyning mazkur oyatga bitgan tafsiriga e’tibor bersak, sunnat, ijmo, sahobiyning so’zi va qiyos ham Qur’onning bayoni hisoblanishi ma’lum bo’lmoqda.

Ulamolar Qur’oni karimda haqiqatda barcha narsa bayon etilgani, lekin hamma ham ularni anglay olmasligini aytadilar<sup>13</sup>. Chunki oyatlar ba’zi ma’nolarni ochiq oydin ifoda etsa, ba’zilariga ishora qiladi, yana ba’zi ma’nolarga dalolat qilsa, ba’zi ma’nolarni taqozo etadi. Shunday ekan har kim ham oyatlardan mustaqil hukm chiqara olmaydi. Bunda arab tilini bilish, boshqa ilmlardan xabardor bo’lish kifoya qilmaydi. Agar shunday bo’lganida, tafsir ilmi Payg’ambar davrlaridayoq paydo bo’lmasdi. Bu haqida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (rohimahulloh)ning “Qu’ron ilmlari” kitobida shunday deyiladi:

“Islomning dasturi bo’lgan Qur’oni karmni chuqur o’rganishga bog’liq bo’lgani uchun ham tafsir ilmi alohida ahamiyatga ega. Aynan tafsir ilmi Qur’oni karimning hidoyati, ta’limoti, sirlari va ko’rsatma hamda hukmlarini o’rganishga xizmat qiladi. Ushbu ilmsiz mazkur narsalarni bilish va ularga amal qilish mumkin emas. Bu ulug’ ilm Payg’ambar Muhammad (s.a.v)ning davrlarida yuzaga kelgan, chunki u zot odamlarga Qur’oni karimning ma’nolarini o’z sunnatlari bilan bayon qilar, sahobalarning Qur’on oyatlari to’g’risidagi savollariga javob berar edilar”<sup>14</sup>.

Bundan ma’lum bo’ladiki, sahobalar arab tilining asl egalari, uning zavqini his qila oladigan kishilar bo’lganiga qaramay, Haq taoloning kalomini tushunishda Payg’ambar (a.s)ning bayonlariga muhtoj bo’lganlar. Shunday ekan bugungi kunda o’zlaricha Qur’on va hadisning zohiridan mustaqil hukm olishga, go’yoki Qur’on va hadisga bevosita ergashishga harakat qilayotganlarning yo’li juda ham xatarli va ummatning ijmosiga xilofdir. Islomning avvalgi asrlarida yuzaga kelgan fihiy va aqidaviy mazhablarning shakllanishi va butun

<sup>10</sup> Abu al-Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy. Madorik at-tanzil va haqiqoiq at-ta’vil. – J:2. – Bayrut:Dor al-kalim at-toyyib, 1998. – B. 229.

<sup>11</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 563.

<sup>12</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 103.

<sup>13</sup> Ahmad ibn Abu Said. Nur al-anvor sharh risola al-manor.– Karachi:al-Bushro, 2021. – B. 708.

<sup>14</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qu’ron ilmlari. – Toshkent: Hilol nashr, 2019. – B. 453.

ummat tarafidan qabul qilinishi bejiz bo'lmagan. Zero mo'tabar mazhab imomlarining har biri o'zlari aytgan hukmlariga shar'iy hujjati, asosi bo'lgan. Usulul fiqh ilmida maqsad ayni shu jihat – mujtahid ulamolarning shar'iy hukmlarni istinbot qilib olishdagi asoslari, tayangan shar'iy hujjatlari, dalil va hukm o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratiladi.

Mazkur ilmni o'rganish orqali islom dinida mavjud barcha hukmlarning dalillarga suyangani haqida dastlabki xulosa va qoniqish hosil bo'ladi. Ya'ni, usulul fiqhni o'rganishning avvalgi bosqichida mujtahid ulamolar naqadar buyuk, mislsiz xizmatni amalga oshirgani, biror masalada asossiz so'z aytmaganiga to'laqonli ishonch paydo bo'ladi. Keyingi bosqichda dalillar borasida, ularning hukmlarga dalolat qilish darajalari, dalildan hukmga olib boruvchi asoslarni ajratish bobida bir qadar malaka hosil bo'ladi.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 624b
2. Abu al-Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy. Madorik at-tanzil va haqiqat at-ta'vil. – J:2.– Bayrut:Dor al-kalim at-toyyib, 1998. – 750 b.
3. Ahmad ibn Abu Said. Nur al-anvor sharh risola al-manor.– Karachi:al-Bushro, 2021. – 960 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qu'ron ilmlari. Toshkent: Hilol nashr, 2019. – 453 b.
5. Nizomiddin Shoshiy. Usul ash-Shoshiy. – Karachi : Al-Bushro, 2021. – 304 b.
6. Saloh Muhammad Abulhajj. Tahzib misar al-vusul ila ilm al-usul al-fiqh al-hanafiyya. – Ummon: Dor al-Foruq, 2020. – B. 23.. – 388 b.
7. Hamidulla Aminov, Soatmurod Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 400 b.